

**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI VA ADVOKATURA
O‘RTASIDAGI HUQUQIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH”****Abdijemilova Sholpanay Abdikalikovna****Toshkent davlat yuridik universiteti****Magistratura va sirtqi ta’lim fakulteti****Advokatura faoliyati yo‘nalishi magistranti****e-mail: solpanajabdyzemilova@gmail.com****tel: +998913889955****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15638583>**

Kalit so‘zlar: Adliya vazirligi, advokatura, advokat so‘rovi, lisenziya berish, malaka oshirish, advokatlar reestri, yuridik yordam.

Keywords: Ministry of Justice, bar, lawyer's request, licensing, advanced training, registry of lawyers, legal aid.

O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabr kuni qabul qilingan “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunida advokatura va uning vazifalari, O‘zbekiston Respublikasining advokatura to‘g‘risidagi qonunchiligi, advokat tushunchasi, advokat maqomiga ega bo‘lish, advokatura faoliyatining prinsiplari va tashkiliy shakllari, advokatlar hay’ati, yuridik maslahatxona, advokatlik faoliyatining turlari, advokatning huquqlari, advokatning vazifalari, advokat so‘rovi, advokatning yordamchisi, advokatning stajyori, advokat siri, yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi bitim (shartnoma), advokatlik faoliyatining kafolatlari, advokatlar mehnatiga haq to‘lash, advokatning ijtimoiy huquqlari, Advokatlar palatasi, advokatlar palatasining asosiy vazifalari, advokatlar palatasining organlari va mansabdor shaxslari, advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari, malaka komissiyalari, advokat maqomini to‘xtatib turish, advokatning intizomiy javobgarligi, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish, litsenziyaning amal qilishini tugatish, advokatura va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar to‘g‘risida belgilab qo‘yilgan.

Ushbu qonunning 17-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o‘z vakolatlari doirasida: advokatlik tuzilmalari va advokatlar palatasining faoliyatiga ko‘maklashadi; advokatura faoliyati to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni o‘rganadi; advokatlarning malakasini oshirishga doir talablarni amalga oshirishga ko‘maklashadi; advokatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, shuningdek advokatlik tuzilmalari tomonidan ta’sis hujjatlariga, ustavda belgilangan faoliyatiga, qayta ruyxatdan o‘tish va tugatish tartibiga riyo etilishini nazorat qiladi; order shaklini tasdiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hammaning foydalanishi uchun ochiq bo‘lgan Advokatlarning yig‘ma davlat reestrini yuritadi. Adliya organlari advokatlarning tegishli davlat reestrini yuritadi. Advokatlarning yig‘ma davlat reestrini hamda advokatlarning davlat reestrini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 16-iyun kuni qabul qilingan “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni- davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish tartibini belgilovchi hujjat bo‘lib, unda kimlarga va qanday shartlarda yuridik yordam ko‘rsatilishi haqida belgilab qo‘yilgan.

Ushbu qonunning 7-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish sohasidagi vakolatlari belgilangan bo‘lib, bunda

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi: davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimini boshqaradi; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasidagi davlat dasturlari loyihalarini ishlab chiqadi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatlar reyestrini yuritadi; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatlar reyestriga kiritilish istagini bildirgan advokatlar bilan davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar tuzilishini ta'minlaydi va ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoringni tashkil etadi; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplash choralari ko'radi; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimini moliyalashtirish masalasi bo'yicha navbatdagi davr uchun budjet so'rovlarini shakllantiradi; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasidagi qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qiladi hamda ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasida davlat organlari va advokatlar o'rtasidagi hamkorlik tizimini muvofiqlashtiradi¹.

Bu qonunga muvofiq, maxsus vakolatli davlat organi boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 774-son qarorining¹ ilovasiga muvofiq tasdiqlangan "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risida" gi Nizomning 5-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasidagi quyidagi vazifa va funksiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari (keyingi o'rinlarda — hududiy adliya organlari) tomonidan amalga oshiriladi:

reyestrga kirish istagini bildirgan advokatlar bilan davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida shartnomalar tuzish, ularni o'zgartirish va bekor qilish; shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish; advokatlarni reyestrga kiritish, reyestrda chiqarish va undagi ma'lumotlarni yangilab borish; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatlarning navbatchilik jadvalini tasdiqlash va e'lon qilish.

Ushbu nizomning 6-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasidagi quyidagi vazifa va funksiyalari tuman (shahar) adliya bo'limlari (keyingi o'rinlarda - adliya bo'limlari) tomonidan amalga oshiriladi: davlat hisobidan yuridik yordam olish haqidagi murojaat va so'rovlarni ko'rib chiqish; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishni rad etish va tugatish, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatayotgan advokatni

¹ Boboqulova M. MALAKALI YURIDIK YORDAM OLIISH HUQUQINING QONUNLARDA VA KONSTITUTSIYADA AKS ETDIRILGANLIGI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 4. – C. 439-445.

almashtirish bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish; "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali tanlangan yoki navbatchilik jadvaliga kiritilgan advokatni ishga jalb etish choralari ko'rish; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni tekshirish; zaruratga ko'ra, davlat hisobidan ko'rsatilgan yuridik yordamning sifati, turi, hajmi va muddatlarini tasdiqlash maqsadida davlat hisobidan yuridik yordam olgan jismoniy shaxslardan va ishni yuritayotgan vakolatli organdan (mansabdor shaxsdan) tegishli axborot va ma'lumotlarni so'rab olish; davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplash choralari ko'rish deb belgilangan. Ushbu Nizomning 7-bandida bo'lsa, hududiy adliya organlari adliya bo'limlari tomonidan ushbu Nizomning 6-bandida nazarda tutilgan vazifa va funksiyalar bajarilishini nazorat qilib boradi.

Shu o'rinda aytib o'tishimiz joizki, Adliya vazirligi va advokatura o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat. Advokatura o'z faoliyatida mustaqil bo'lib, davlat organlaridan alohida faoliyat yuritadi. Adliya vazirligi va advokatura o'rtasida qonunchiligimizda belgilangan o'zaro hamkorlik mavjud bo'lib, bu munosabatlar faoliyatini tartibga solish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Advokatura o'z faoliyatini o'zi boshqaradi, lekin qonunchiligimizga ko'ra bu boshqaruv Adliya vazirligining umumiy nazorati ostida amalga oshiriladi. Adliya vazirligi advokatura faoliyatini nazorat qiladi, lekin bu nazorat advokaturaning mustaqilligiga xalaqit bermasligi kerak.

Xorijiy davlatlar (Germaniya, Fransiya, AQSh, Janubiy Koreya) tajribasini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzurida Advokatura muammolarini tadqiq etish institutini tashkil etish zarurligi, uning asosiy vazifalari va faoliyatini samarali tashkil etishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan va Advokatlar palatasi Boshqaruvining qarori loyihasi asoslantirilgan;

Yakka tartibda, a'zolik, sheriklikka yoxud boshqa munosabatlarga asoslangan advokatlik tuzilmalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirishga oid xulosalar asoslantirilgan;

Advokatura institutini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari kompleks xususiyatga ega bo'lib, yaxlit yondashilgan holda yondashuvni taqozo etishi, ayni paytda, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida advokaturaning konstitutsiyaviy asoslari va prinsiplari belgilanganligidan kelib chiqib, "O'zbekiston Respublikasining advokatura institutini 2030-yilgacha takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonini qabul qilish zaruriyati hamda unda aks etishi lozim bo'lgan normalar tavsiflangan, Farmon va strategiya loyihasi ishlab chiqilgan va asoslantirilgan;

Xorijiy mamlakatlarda advokatura institutining tashkiliy-huquqiy asoslarining o'ziga xos jihatlari, ularning turli huquqiy tizimlar asosida rivojlanishi asoslantirilgan².

² Davlyatov V. ORGANIZATIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF THE LEGAL PROFESSION IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN // Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2025. – T. 3. – №. 03. – C. 26-29.

Amaliyotdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Advokatura institutini tartibga solish va muammolarini tadqiq etish institutini tashkil etish zarur deb hisoblayman.

Chunki advokatura institutini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari kompleks xususiyatga egadir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi advokatura sohasida quyidagi asosiy vakolatlariga ega. Ya'ni, advokatlik faoliyatini litsenziyalash. Adliya vazirligi advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berishni amalga oshiradi. Bu jarayon "Advokatura to'g'risida"gi qonun va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek talabgorlarga advokatlik guvohnomasini beradi. Advokatlik guvohnomasining shakli va uni berish tartibi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va hududiy adliya organlari advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish vakolatiga ega. Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish Adliya vazirligining vakolatiga kiradi.

Shuningdek, Adliya vazirligi advokatlarning malakasini oshirishni tashkil etadi va bu borada tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi.

Adliya vazirligi advokatlik faoliyatini nazorat qiladi, shu jumladan advokatlarning litsenziya talablari va kasb etikasi qoidalariga rioya qilishini tekshiradi.

Adliya vazirligi advokatlarning huquqiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Adliya vazirligi advokatlik faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni yig'adi va tahlil qiladi.

Adliya vazirligi advokatlarning malakasini oshirishni tashkil etadi. Advokatlarning malakasini oshirish tizimi raqamlashtirilgan bo'lib, onlayn malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Malaka oshirganligini tasdiqlovchi hujjatlar elektron shaklda beriladi. Bu tizim advokatlarning professionallik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Adliya vazirligi advokatlik faoliyatini nazorat qiladi. Advokatlarning litsenziya talablari va kasb etikasi qoidalariga rioya qilishini tekshiradi. Advokatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, shuningdek advokatlik tuzilmalari tomonidan ta'sis hujjatlariga, ustav faoliyatiga, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Adliya vazirligi advokatlarning huquqiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Advokatlarning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish holatlari aniqlanganda, Adliya vazirligi tegishli choralarni ko'radi. Advokatlarning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish – tahdidi yoki boshqa har qanday to'siqlarni keltirib chiqarish ma'muriy huquqbuzarlik sifatida belgilangan.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 <https://lex.uz/docs/-6445145>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 13.04.2018 yildagi PQ-3666-son, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-3681790>.
4. O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni. – 25.12.1998.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son [qarori](#) bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida"gi Nizom. – 13.04.2018.
6. O'zbekiston Respublikasining «Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida»gi Qonuni. – 16.06.2023.
7. Madinabonu T. O'zbekistonda Legal Tech sohasida innovatsiyon loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari // Yangi O'zbekiston, Yangi tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 339-347.
8. Ҳақимов Р. Р. ЮРИДИК ТАЪЛИМ: БУГУНГИ ҲОЛАТ, МУАММОЛАР ВА ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Review of law sciences. – 2020. – №. 1. – C. 4-9.
9. Давлятов, Валишер. "Модели организации системы органов самоуправления и их содержание." *Обществоиинновации* 6.1/S (2025): 385-389.
10. NurumovD. D., To'YchiyevaM. B. Q. O'zbekistonda davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari//Orientalrenaissance: Innovative, educational, naturalandsocialsciences. – 2023. – T. 3. – №. 6. – C. 639-649.
11. <http://lex.uz>;
12. <https://president.uz/uz/lists/view/3887>